ZAMONAVIY SPORT DISKURSIDA TERMINOLOGIK TRANSFORMATSIYA VA RAQAMLI RITORIKA: LISONIY STRATEGIYALAR TAHLILI

Xusanova Feruza Buron qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: **Q.A.Mo‘ydinov**
f.f.f.d.(PhD), dots.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek sport diskursida ro‘y berayotgan terminologik o‘zgarishlar, ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida yuzaga kelgan "layk" ritorikasi va kommunikativ strategiyalar tadqiq etiladi. Shuningdek, sport sohasidagi asl turkiy qatlamga oid so‘zlarning bugungi kundagi holati va ularning o‘rnini egallayotgan neologizmlar (chet tili o‘zlashmalari) qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: sport lingvistikasi, raqamli ritorika, tresh-tok, terminologik transformatsiya, turkiy qatlam, media diskurs, kommunikativ strategiya, neologizm.

Abstract: This article examines terminological changes occurring in modern Uzbek sports discourse, "like-oriented" rhetoric, and communicative strategies emerged under the influence of social media. Furthermore, it provides a comparative analysis of the current state of original Turkic vocabulary in the field of sports and the neologisms (foreign borrowings) replacing them.

Keywords: sports linguistics, digital rhetoric, trash-talk, terminological transformation, Turkic layer, media discourse, communicative strategy, neologism.

Аннотация: В данной статье исследуются терминологические изменения в современном узбекском спортивном дискурсе, риторика «лайков» и коммуникативные стратегии, возникшие под влиянием социальных сетей. Также проводится сравнительный анализ современного состояния исконно тюркского пласта слов в сфере спорта и заменяющих их неологизмов (заимствований из иностранных языков).

Ключевые слова: спортивная лингвистика, цифровая риторика, трэш-ток, терминологическая трансформация, тюркский пласт, медиадискурс, коммуникативная стратегия, неологизм.

Zamonaviy tilshunoslik fanida XXI asr boshlaridan buyon antropotsentrik paradigma (inson omiliga yo‘naltirilgan yondashuv) ustuvorlik qilmoqda. Bu davrda til shunchaki belgilar tizimi emas, balki ijtimoiy ong, madaniyat va texnologiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab fenomen sifatida o‘rganilmoqda. Xususan, tilshunoslikda yangi kirib kelgan kognitiv lingvistika, lingvokulturologiya, kompyuter lingvistikasi va media-lingvistika kabi sohalar tilshunoslikni umumiy o‘rganishda yangi metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda til sohasida olib borilayotgan eng so‘nggi qadamlardan biri – Sport lingvistikasi (Sport linguistics)ning mustaqil tarmoq sifatida shakllanishidir. Ushbu yo‘nalish doirasida sport tili faqat terminlar yig‘indisi sifatida emas, balki madaniyatlar muloqoti, milliy o‘zlikni namoyon qilish vositasi va ijtimoiy manipulyatsiya quroli sifatida tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, raqamli platformalarning rivojlanayotganiga oid yangilanishlar nutqning og‘zaki va

yozma shakllari o‘rtasidagi chegarani yo‘qotib, "layk" va "reaksiya"ga asoslangan yangi ritorik strategiyalarni vujudga keltirdi.

O‘zbek tilshunosligida ham sport terminologiyasini unifikatsiya qilish (bir xillashtirish) va xalqaro standartlarga moslash borasida jiddiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, globallashuv jarayonida ingliz tili dominantligining ortishi va ijtimoiy tarmoqlardagi "tresh-tok" madaniyati milliy sport lisonining o‘ziga xosligiga ta’sir ko‘rsatmay qolmayapti. Shu nuqtayi nazardan, sport diskursida terminologik transformatsiya va asl turkiy qatlamning saqlanish muammolarini o‘rganish zamonaviy o‘zbek tilshunosligining eng dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda sport faqat jismoniy bellashuv maydoni emas, balki ulkan media-platformadir. Bu platformada til asosiy ta’sir ko‘rsatish va ijtimoiy kapital (layk/like, ko‘rilishlar soni) yig‘ish vositasiga aylandi.

I.Terminologik transformatsiya va metaforizatsiya

Sport terminologiyasi endilikda o‘zining denotativ (asl) ma’nosidan chiqib, keng ko‘lamli metaforik ko‘chimlar hosil qilmoqda. Siyosiy va ijtimoiy ko‘chimlar: "Nokaut holatiga tushish", "ofsaydda qolish", "final bosqichi", "siyosiy pressing" kabi birikmalar kundalik nutqqa va publisistikaga kirib keldi.

Funksional kengayish: Terminlarning faqat mutaxassislar o‘rtasida emas, balki ommaviy axborot vositalari orqali umumxalq tiliga singishi tilning leksik-semantik sathini boyitish bilan birga, uning funksional chegaralarini ham kengaytirmoqda.

II. Raqamli ritorika: "layk" uchun nutq strategiyalari

III. Turkiy qatlam va chet tili o‘zlashmalari: qiyosiy tahlil

O‘zbek sport terminologiyasining shakllanish tarixiga nazar tashlasak, uning poydevorida boy turkiy leksika yotganini ko‘ramiz. Biroq, globallashuv va ingliz tili dominantligi natijasida ko‘plab asl so‘zlarimiz "arxaiklashib" bormoqda yoki o‘rnini xalqaro terminlarga bo‘shatib bermoqda:

1. Maydon – Arena / Oktagon (aralash jang san’atlarida (MMA) turkiy "maydon" so‘zi deyarli "oktagon"ga almashdi);
2. Kurash / Olishuv – Fayt (Fight) / Batl (Battle) (sport tadbirlari nomlanishida inglizcha kalkalardan foydalanish tendensiyasi kuchli);
3. Belbog‘li kurash – Belt-wrestling (milliy sport turlarining xalqaro nomlanishi lisoniy transformatsiyaga uchramoqda).

Ushbu o‘zgarishlar tilning lug‘at boyligini oshirsa-da, milliy sport terminologiyasining o‘ziga xosligini (identitetini) biroz xiralashtiradi. Tilshunoslikda bu jarayon "Lisoniy interferensiya" (tillarning o‘zaro aralashuvi) deb ataladi.

Sport lingvistikasi doirasidagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy sport nutqi – bu ijtimoiy tarmoqlar qonuniyatlari asosida shakllangan murakkab tizimdir. "Layk" uchun qurilgan nutqlar ritorikani ko‘proq agressiv va manipulyativ qilayotgan bo‘lsa, terminologik sathda chet tili o‘zlashmalari milliy qatlamni chetga surib chiqarmoqda. Ushbu jarayonlarni ilmiy o‘rganish o‘zbek tilining sport diskursidagi imkoniyatlarini saqlab qolish va zamonaviy talablarga moslashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent, 2019.
2. Beard A. The Language of Sport. – Routledge, 1998.
3. Sport terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2022.